



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI REKTORINING
BUYRUG‘I**

2022-yil “17” sentabr

№ 284

Toshkent sh.

O‘quv jarayoniga oid me‘yoriy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabridagi “Davlat oliy ta‘lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-60 sonli qarori, Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirining “Oliy ta‘limning davlat ta‘lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 311-sonli buyrug‘i (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021-yil 27-oktabrida hisobga olingan)da belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash, Toshkent tibbiyot akademiyasida ta‘limning kredit-modul tizimini to‘liq joriy etish maqsadida

BUYURAMAN:

1. Quyidagilar:

Toshkent tibbiyot akademiyasida ta‘limning kredit-modul tizimida o‘quv jarayonini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi Nizom 1-ilovaga,

Toshkent tibbiyot akademiyasida kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ta‘limini tashkil etish va nazorat qilish bo‘yicha yo‘riqnoma 2-ilovaga,

Toshkent tibbiyot akademiyasida ta‘limning kredit-modul tizimi asosida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tartibi 3-ilovaga,

Toshkent tibbiyot akademiyasi kafedralarining fakultetlarga birlashtirilishi 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, o‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i (F.X.Azizova) fakultet dekanlari (B.T.Xalmatova, A.A.Irnazarov, A.A.Xamraev, F.I.Salomova, S.U.Aliev, J.X.Tursunov), kafedra mudirlariga:

2022-2023 o‘quv yilidan boshlab mazkur me‘yoriy hujjatlarni 1- va 2-kurs talabalarining o‘quv jarayoniga tatbiq etilishi ta‘minlansin;

Mazkur buyruqning mazmun-mohiyati barcha 1-va 2-kurs talabalari hamda professor-o‘qituvchilarga yetkazilsin;

3. Ushbu buyruqning ijrosini nazorat qilish o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov zimmasiga yuklatilsin.

Rektor



A.K.Shadmanov

KIRITILDI:


O'quv-uslubiy boshqarma
boshlig'i



F.X.Azizova

KELISHILDI:

O'quv ishlari bo'yicha
prorektor



Sh.A.Boymuradov

Bosh buxgalter

B.I.Alijonova

Magistratura bo'limi
boshlig'i



A.A.Imamov

Yurist



S.M.Yusupova

Toshkent tibbiyot akademiyasida ta’limning kredit-modul tizimida o‘quv jarayonini tashkil etish tartibi to‘g‘risida NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom Toshkent tibbiyot akademiyasida (keyingi o‘rinlarda - TTA) ta’limning kredit-modul tizimida o‘quv jarayonini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. TTA o‘quv jarayonida kredit-modul tizimi kredit to‘plash va ko‘chirishning Yevropa modeli (European Credit Transfer and Accumulation System – ECTS)ga muvofiq tashkil qilinadi.

Agar TTA tomonidan boshqa oliy ta’lim tashkilotlari bilan qo‘shma ta’lim dasturlari doirasidagi shartnomalarda ushbu Nizomda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar nazarda tutilgan bo‘lsa, shartnomada belgilangan qoidalar qo‘llaniladi.

3. O‘quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etishning tashkiliy masalalariga oid ma’lumotlar, jumladan, ta’lim dasturi, fanlar katalogi, akademik mobillikni ta’minlash, kreditlarni tan olish va ko‘chirib o‘tkazishga taalluqli hujjatlar hamda diplomga ilovaning shakllari, shuningdek, akademik mobillik davrida talabaning bilim darajasini aniqlash bo‘yicha ko‘rsatkichlar va boshqa zarur hujjatlar namunalari TTA tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

2-bob. Asosiy tushunchalar

4. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

akademik mobillik – TTA talabalarining muayyan vaqt mobaynida Respublika hududidagi yoki xorijiy davlatdagi boshqa bir oliy ta’lim tashkilotiga o‘qish maqsadida borishi;

mobillik dasturi – ikki yoki undan ortiq oliy ta’lim tashkiloti o‘rtasida o‘zaro ta’lim to‘g‘risidagi kelishuv asosida tashkil etilgan akademik mobillik dasturi;

kredit – ta’lim olish natijalariga ko‘ra talaba tomonidan muayyan fan bo‘yicha o‘zlashtirilgan o‘quv yuklamasining o‘lchov birligi;

oliy ta’lim tashkiloti – belgilangan miqdordagi kreditlarni tan olishni hisobga olgan holda, ta’lim va malaka to‘g‘risidagi hujjat beruvchi tashkilot;

kreditlarni ko‘chirish – talabalarining akademik mobilligini ta’minlash maqsadida bir oliy ta’lim tashkiloti ta’lim dasturi bo‘yicha olingan kreditlarni boshqa oliy ta’lim tashkilotiga ko‘chirish va tan olish;

kredit to‘plash – ta’lim elementlarini o‘zlashtirish va boshqa yutuqlarga erishish natijasida taqdim etiladigan kredit birliklarini to‘plash;

talabaning shaxsiy ta'lim traektoriyasi – talaba tomonidan tanlangan hamda unga ketma-ketlikda bilimlar to'plash va xohlagan kompetensiyalar yig'indisiga ega bo'lish imkoniyatini beradigan yo'nalish (marshrut). Ta'lim traektoriyasi institutsional hujjatlar va yo'riqnomalar yordamida tuzilishi hamda turli ta'lim traektoriyalari natijada bir xil malaka olishga olib kelishi mumkin;

ta'lim dasturi – bakalavriat ta'lim yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligi bo'yicha o'quv jarayonini amalga oshirishga mo'ljallangan ta'limning asosiy xususiyatlari (hajmi, mazmuni, rejalashtirilgan natijalar), tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar, fan dasturlariga qo'yilgan umumiy talablar, shuningdek, ta'limni tashkil etish va amalga oshirish uchun zarur bo'lgan axborot-resurs va o'quv-metodik ko'rsatmalar majmui;

ta'lim dasturi katalogi – oliy ta'lim tashkiloti tavsifi, kredit-modul tizimiga kirish, mavjud bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari, xizmatlar va resurslar, o'quv fanlari dasturlari, aniq ta'lim dasturlari elementlari tavsifi to'g'risidagi axborot;

ta'lim jarayonini boshqarish axborot tizimi – talabalarni ro'yxatga olish, o'quv materiallarni tarqatish, talabalar va o'qituvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni ta'minlash, topshiriqlarni berish, nazoratlar o'tkazish, baholash va uning natijalarini qayd etish kabi imkoniyatlarga ega bo'lgan elektron tizim (maxsus dasturiy vosita);

ta'limning kredit-modul tizimi – ta'lim oluvchiga yo'naltirilgan, ta'lim olish, ta'lim berish va ta'lim oluvchilar bilimni baholash jarayonlarining shaffofligi tamoyili asosida kreditlarni yig'ish va o'tkazishdan iborat tizim;

ta'lim moduli (modul) – bu o'zida bilimga oid hamda kasbiy jihatlarni qamrab oladigan, talabada bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan ta'lim dasturining tarkibiy elementi sifatida nazorat qilishning tegishli turi bilan yakunlanadigan alohida o'quv fani (uning qismi yoki o'zaro bir sohaga doir fanlar majmui);

ta'lim natijalari – talaba tomonidan o'zlashtirilgan va baho bilan tasdiqlangan malaka darajasini aks ettiradigan, ta'lim jarayonini tugatgach talaba o'zlashtirgan ko'nikmalar va ularni amalda bajarish qobiliyatining tavsifi;

ta'lim elementlari – ta'lim dasturining bir qismi bo'lib, ta'lim olish natijalariga erishish va ta'lim dasturida ko'rsatilgan bilimlarni o'zlashtirishga ko'maklashuvchi o'qitish turi;

transkript – ta'lim olishning tegishli davrida o'zlashtirilgan kreditlar va baholarning harf va raqamlardagi ifodasi ko'rsatib o'tilgan fanlar ro'yxatini o'z ichiga olgan belgilangan shakldagi hujjat;

o'qish yuklamasi – talaba tomonidan o'quv faoliyatining barcha turlari – ma'ruza, amaliy mashg'ulot, seminar, laboratoriya ishi, kurs loyihasi (ishi), amaliyot va mustaqil ishni amalga oshirish asosida kutilgan o'quv natijalariga erishish uchun zarur bo'lgan soatlar hajmi;

ro'yxatga olish xizmati – ta'lim jarayonini boshqarish axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlardan foydalanib professor-o'qituvchilar, xodimlar va talabalar bo'yicha ta'lim jarayoniga oid ma'lumotlar bazasini shakllantirishni, shuningdek, talabalarning barcha o'quv natijalarini ro'yxatga olish, bilimni nazorat qilish hamda

ularning akademik reytingini hisoblashning barcha turlarini tashkil etishni nazarda tutuvchi xizmatlar;

GPA (Grade Point Average) – ta’lim oluvchining dastur bo’yicha o’zlashtirgan ballari o’rtacha qiymati bo’lib, u quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$GPA = \frac{K_1 * U_1 + K_2 * U_2 + K_3 * U_3 \dots + K_n * U_n}{K_1 + K_2 + K_3 \dots + K_n}, \text{ bunda:}$$

K – har bir fan/modulga ajratilgan kreditlar miqdori;

U – har bir fan/modul bo’yicha talaba to’plagan ball.

Bunda, talaba faqat fan/modulni muvaffaqiyatli yakunlagan taqdirda, ushbu fan/modul bo’yicha kredit beriladi.

3-bob. Ta’lim dasturi tuzilmasi

6. O’quv yili uchun ta’lim dasturi tuzilmasi bir yoki bir nechta modullardan iborat ta’lim elementlaridan tashkil topgan bo’lib, TTA kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Ta’lim dasturi ta’lim olish natijalariga mos bo’lgan va kreditlarda ifodalangan o’quv mashg’ulotlari, ilmiy loyihalar, mustaqil ta’lim, amaliyot, stajirovka, ijtimoiy va jamoat faoliyati va boshqa ta’lim elementlaridan iborat bo’lishi mumkin.

7. Ta’lim dasturi tuzilmasi uning har bir ta’lim elementiga mos keladigan ta’lim olish natijalarini ko’rsatgan holda, bir akademik o’quv yiliga 60 kreditga mos kelishini hisobga olib ishlab chiqiladi. Ta’lim dasturida kreditlarning miqdori o’quv yuklamasi asosida ko’rsatiladi.

8. Talabalarining ta’lim dasturini muvaffaqiyatli o’zlashtirishlari hamda talab qilingan malakaga ega bo’lishlari uchun talablar aniq belgilanadi. O’zlashtirish qoidalari tanlangan ta’lim dasturi bo’yicha o’qitishning turli bosqichlari uchun belgilangan kreditlar miqdorida yoki kreditlar oralig’ida ifodalanishi mumkin.

9. Ta’lim dasturining talabalar tomonidan muvaffaqiyatli bajarilishiga yordam berish uchun TTAning tegishli bo’linmalari va xodimlari, shu jumladan, ta’limning kredit tizimini boshqarishga mas’ul bo’limi, tyutor tomonidan maslahat va tushuntirishlar berib boriladi. Maslahat doirasida talabalarga ta’lim olish natijasida erishgan yutuqlar va tajribani tan olish imkoniyatlari tushuntiriladi.

10. TTA ta’lim dasturi katalogi va o’qitish sharoitlari to’g’risidagi ma’lumotlar hamda dolzarb axborotlar TTAning rasmiy veb-saytida ta’lim beriladigan barcha tillarda (o’zbek, rus, ingliz) o’quv yili boshlanishidan kamida bir oy oldin joylashtiriladi va doimiy ravishda yangilab boriladi.

11. Ta’lim dasturi va uning elementlarini amalga oshirishga mas’ul o’qituvchilar ta’lim dasturida ko’rsatilgan natijalar bilan ta’lim berish hamda baholash jarayonlari o’rtasidagi mutanosiblikni ta’minlashlari lozim.

4-bob. O’quv jarayonini rejalashtirish, monitoring olib borish va ta’lim sifatini ta’minlash

12. O'quv jarayoni o'quv va nazorat tadbirlari majmuini o'z ichiga oladi. O'quv tadbirlarida barcha turdagi auditoriya mashg'ulotlari, amaliyot va mustaqil ishlarning tashkil etilishi nazarda tutiladi. Nazorat tadbirlari ta'lim oluvchilarning o'quv rejasidagi tegishli fanlar bo'yicha bilimlarni o'zlashtirishini va ularning natijalarini baholashni nazarda tutadi.

13. O'quv jarayoni talabalar, professor-o'qituvchilar va ma'muriyat o'rtasida ochiq muloqot shaklida talabaga yo'naltirilgan yondashuv asosida rejalashtiriladi. Ushbu jarayonda talabalarning talab va istaklari muhokama qilinadi. Barcha manfaatdor tomonlar ta'lim dasturining yaratilishi va o'zlashtirilishining konstruktiv muhokamasiga jalb etilishi mumkin. Bunday muhokamalarda talabalar vakillari ovoz berish huquqi orqali ishtirok etishlari mumkin.

14. O'quv jarayonini rejalashtirish quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:
ta'lim dasturi katalogi va o'quv rejasini ishlab chiqish;
fanlarning ishchi dasturlarini (sillabusni) ishlab chiqish;
o'quv rejasi va tanlov fanlari ro'yxatiga mos ravishda tyutor va fakultet nazorati ostida talabalarning shaxsiy ta'lim traektoriyasini shakllantirish;
o'quv jarayoni jadvalini tuzish;
akademik guruhlar bo'yicha o'quv mashg'ulotlari jadvalini tuzish.

15. Semestr davomida talaba tomonidan to'planishi lozim bo'lgan kreditlar miqdori o'quv rejasida ko'rsatilgan majburiy va tanlov fanlarini o'z ichiga oladi. Majburiy va tanlov fanlari tarkibi va ularni o'rganishga ajratiladigan kreditlar miqdori TTA tomonidan mustaqil belgilanadi. Talabalar shaxsiy ta'lim traektoriyasida belgilangan tanlov fanlari doirasida fanlarni mustaqil tanlashi mumkin.

Bakalavriat (magistratura) talabasi o'quv rejasida nazarda tutilgan davlat attestatsiyasini muvaffaqiyatli topshirib, o'quv rejasida belgilangan kredit miqdorini jamlaganda, bakalavr (magistr) darajasiga ega bo'ladi.

16. O'quv yili davomiyligi TTA kengashi tomonidan belgilanadi.

Kredit-modul tizimida 1 kredit o'rtacha 30 soatlik o'quv yuklamasiga teng. Ya'ni talaba muayyan fandan tegishli kreditlarni to'plashi uchun ma'lum miqdordagi o'quv yuklamasini o'zlashtirishi zarur. O'quv yuklamasi bakalavriat va magistraturada - 50% auditoriya soati, 50% mustaqil ish soatiga bo'linadi. O'quv rejasiga muvofiq amaliyot va bitiruvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi uchun ham kreditlar ajratiladi. Kreditning soatlardagi miqdori va o'quv yuklamasi miqdori TTA kengashi tomonidan belgilanadi va TTA web-sahifasida shaffof tarzda joylashtiriladi.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarida talaba odatda bir semestrda 30 kredit, bir o'quv yilida 60 kredit to'plashi belgilanadi. Semestr davomida talaba tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan kreditlar hajmi o'quv rejasida ko'rsatilgan majburiy va tanlov fanlarini o'z ichiga oladi. Talaba o'zining shaxsiy ta'lim traektoriyasini shakllantirishda har bir semestr uchun 30 kredit hajmidagi fanlarni o'zlashtirishni nazarda tutishi, ular tarkibida o'quv rejasidagi majburiy fanlar bo'lishi shart.

Talaba bakalavriatda o'qish muddati kamida 3 yil bo'lganda 180 kredit, o'qish muddati kamida 4 yil bo'lganda 240 kredit, o'qish muddati kamida 5 yil bo'lganda 300 kredit, o'qish muddati kamida 6 yil bo'lganda 360 kredit to'plashi zarur. Magistraturada o'qish muddati kamida 2 yil bo'lganda 120 kredit, o'qish muddati kamida 3 yil bo'lganda 180 kredit to'plashi talab etiladi.

17. O'quv jarayonining monitoringi ta'lim olishning belgilangan natijalariga erishish, nominal mehnat hajmi hamda ularning haqqoniyligi va mosligini baholash maqsadida o'tkaziladi.

18. Ta'lim sifati samaradorligi TTA tomonidan ishlab chiqiladigan ta'lim dasturining vakolatli tashkilotlar tavsifnomalari va talablariga mosligini ta'minlash bilan belgilanadi.

Ta'lim sifatini oshirish va professor-o'qituvchilar o'rtasida raqobatni shakllantirish maqsadida TTA kengashi qaroriga asosan talabalarga fan doirasida professor-o'qituvchilarni tanlash imkoniyati beriladi.

Bunda talabalar ta'lim jarayonini boshqarish axborot tizimi portali orqali o'quv semestri boshida 1 hafta muddat davomida o'zi tanlagan professor-o'qituvchining mashg'ulotida ishtirok etish uchun onlayn tarzda ro'yxatdan o'tadi.

19. Akademik qarzdor talabalarning tashabbusi bilan mavjud akademik qarzlarni topshirish maqsadida yozgi semestr TTA tomonidan ta'til vaqtida pulli asosda tashkil etiladi.

Yozgi semestrning davomiyligi akademik taqvim asosida bakalavriat ta'lim yo'nalishlari, magistratura mutaxassisliklari va kurslar bo'yicha belgilanadi.

Yozgi semestr quyidagi reglament asosida tashkil qilinadi:
talaba yozgi semestr boshlanguniga qadar TTA o'quv-uslubiy boshqarmasiga o'zining yozgi semestrda o'qishi istagini bildiradi;

O'quv-uslubiy boshqarma ushbu talabalarga yozgi semestr uchun dars jadvalini tuzadi va talaba to'lov pulini to'laganidan so'ng darslarga kiritiladi;

yozgi semestr amaldagi baholash tizimi asosida talabalar bilimini shaffof baholash tamoyiliga ko'ra tashkil qilinadi.

Yozgi semestrga jalb qilingan professor-o'qituvchilarga soatbay asosida ish haqi to'lanadi.

20. TTAda o'quv yuklamalari hajmi, o'quv mashg'ulotlari soati, bir kreditning jami soatlari va ularning bo'linishi TTA kengashi tomonidan belgilanadi.

4-bob. Akademik mobillik va kreditlarni tan olish

21. Akademik mobillikni ta'minlash va talabanning kreditlari oliy ta'lim tashkiloti tomonidan tan olinishida quyidagi hujjatlardan foydalaniladi:

ta'lim dasturi (fanlar) katalogi;

ta'lim to'g'risidagi kelishuv, ma'lumotnoma va sertifikat.

Mazkur hujjatlar ta'lim olish natijalarini aks ettiradi va oliy ta'lim tashkilotiga kreditlarni tan olish va ko'chirib o'tkazish uchun asos hisoblanadi.

22. Ta'lim to'g'risidagi kelishuvga muvofiq TTA tomonidan akademik mobillik doirasidagi talabning barcha kreditlari ta'lim dasturini o'zlashtirishda talabaga qo'shimcha topshiriqlarsiz hisobga olinadi.

23. Talaba jo'natuvchi oliy ta'lim tashkiloti tavsiyasiga asosan qabul qiluvchi oliy ta'lim tashkilotiga akademik mobillikni amalga oshirish uchun zarur hujjatlarni topshiradi. Jo'natuvchi oliy ta'lim tashkiloti tomonidan talabaga belgilangan shakldagi transkript taqdim etiladi.

24. Talabning akademik mobillik davrida o'zlashtirilishi belgilangan ta'lim elementlarini jo'natuvchi oliy ta'lim tashkilotining roziligisiz va u bilan kelishmasdan o'zgartirish mumkin emas. Xorijdagi hamkor oliy ta'lim tashkilotlarining ta'lim dasturlarida belgilangan ta'lim olish natijalari jo'natuvchi oliy ta'lim tashkilotining ta'lim dasturi bo'yicha ta'lim olish natijalariga mos kelishi yoki ularni to'ldirishi lozim. Akademik mobillik vaqtida akademik yil ko'rsatkichlari tahlil qilinadi va ushbu Nizomga asosan kreditlar tan olinishi belgilanadi.

25. Qabul qiluvchi oliy ta'lim tashkilotida talaba tomonidan o'zlashtiriladigan o'quv elementlarining to'plami va ular TTA ta'lim dasturiga integratsiya qilinganligi ta'lim to'g'risidagi kelishuvda aniq ko'rsatilgan bo'lishi lozim. Qabul qiluvchi oliy ta'lim tashkilotida o'zlashtiriladigan kreditlar miqdori xorijda o'qish davriga (3-6 oy yoki 1-3 yil) mutanosib bo'lishi kerak. Jo'natuvchi oliy ta'lim tashkiloti tomonidan akademik mobillik davrida talabning o'zlashtirgan (to'liq yoki qisman) kreditlari tan olinadi.

Talaba jo'natuvchi oliy ta'lim tashkilotiga qaytib kelgach, akademik mobillik davrida to'plangan kreditlar miqdoridan kelib chiqqan holda TTA kengashi tomonidan belgilangan tartib-qoidalar asosida uni keyingi kursga o'tkazish yoki kursda qoldirish belgilanadi.

26. TTA akademik mobillik dasturi bo'yicha rejalashtirilgan ta'lim elementlarini o'zlashtirish uchun talabani belgilangan shakl asosida ro'yxatdan o'tkazadi va akademik mobillik davrida ushbu elementlarni o'zlashtirish imkoniyatlari ta'minlanishi majburiyatini oladi.

27. Hamkor tashkilotlar bilan birgalikda ishlab chiqilgan ta'lim dasturlari doirasida akademik mobillik uchun ta'lim to'g'risidagi kelishuvlar tuzilishi zarur hisoblanmaydi.

28. Ta'lim to'g'risidagi kelishuvga muvofiq akademik mobillik davrida talabning bilim darajasini aniqlovchi ko'rsatkichlar TTA baholash tizimini boshqa baholash tizimlariga konvertatsiya qilish jadvali asosida qabul qilinadi.

29. Stajirovkani o'tash bo'yicha talaba, jo'natuvchi va qabul qiluvchi tashkilot tomonidan uch tomonlama kelishuv imzolanadi.

30. Stajirovka davomida talaba tomonidan o'zlashtirilgan bilimlarning oshkoraligini ta'minlash va ularni tasdiqlash maqsadida qabul qiluvchi tashkilot tomonidan stajirovkani o'taganlik to'g'risida sertifikat beriladi.

5-bob. Baholash, baholarni konvertatsiya qilish

31. Talabalar ta'lim dasturi doirasida o'qitish shaklidan qat'i nazar, belgilangan tartibdagi baholash mezonlari asosida baholanadi.

32. Fan dasturida (sillabusda) belgilangan baholash tartibi hamda ijobiy baholar doirasida baholangan talabalarga kreditlar beriladi. Talaba belgilangan ta'lim olish natijalariga erisha olmagan taqdirda, kreditlar berilmaydi.

33. Baholash usullari fan yoki modul doirasidagi talabaning yutuqlarini aks ettiruvchi va tasdiqlovchi yozma, og'zaki, test, OSI, OSKI yoki ularning kombinirlangan turlarini o'z ichiga qamrab oladi. Baholash mezoni ta'lim olish natijasiga erishilganligini aks ettirishi shart.

34. Kreditlarni ko'chirish TTAda baholash tizimini boshqa baholash tizimlariga konvertatsiya qilish jadvalini boshqa oliy ta'lim tashkilotida tuzilgan shunga o'xshash jadval bilan solishtirish asosida amalga oshiriladi.

6-bob. Kredit-modul tizimida talabalarni ro'yxatga olish

35. Ro'yxatga olish xizmati ta'lim va talabalar bilimni baholash jarayonlarini alohida yuritish, talabalar haqidagi akademik ma'lumotlarni elektron tarzda avtomatik boshqarish hamda yakuniy nazoratlarni o'tkazish maqsadida tashkil etiladi.

36. Ro'yxatga olish xizmati talabaga tanlagan mutaxassisligi bo'yicha yuqori darajadagi bilim, ko'nikma va malakalarga erishishda yordam berishga qaratilgan bo'lib, u quyidagi funktsiyalarni qamrab oladi:

o'quv jarayoni jadvalini tuzish va bajarilishini nazorat qilish;
talabalarning fanlarga ro'yxatdan o'tishini nazorat qilish;
fakultetlar bilan hamkorlikda akademik guruhlarni shakllantirish;
oraliq, yakuniy baholashlar va yakuniy davlat attestatsiyasining o'tkazilishini nazorat qilish;

ta'lim olayotgan talabalarning baholarga oid ma'lumotlarini arxivga qadar saqlash;

transkript formalarini shakllantirish va talabalarning ma'lumotlarini kiritish;
talabalar kontingenti bo'yicha statistikani yuritish.

37. Ro'yxatga olish xizmati funktsiyalari kredit-modul tizimini boshqarish bo'limi tomonidan amalga oshiriladi.

38. Ta'limning kredit-modul tizimini boshqarish bo'limi ta'lim jarayonini boshqarish axborot tizimi orqali fakultetlar tomonidan talabalarning fanlarga ro'yxatdan o'tkazilishini va talabaning shaxsiy ta'lim traektoriyasini shakllantirish jarayonini muvofiqlashtiradi. Talabaning shaxsiy ta'lim traektoriyasi ular tomonidan mustaqil ravishda tyutor yordamida o'quv rejasi va tanlov fanlari katalogi asosida tegishli o'qish davri uchun tuziladi. Talabaning ta'lim traektoriyasi ta'lim jarayonini boshqarish axborot tizimidan fanlarni tanlash orqali avtomatik ravishda shakllanadi. Shaxsiy ta'lim traektoriyasiga har o'quv yilidan oldin o'zgartirish yoki qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

39. Talabalarning shaxsiy ta'lim traektoriyasi asosida Ta'limning kredit-modul tizimini boshqarish bo'limi fakultetlar bilan hamkorlikda akademik

guruhlarni shakllantiradi va biron-bir fanga yozilish yetarli bo'lmagan taqdirda, shaxsiy ta'lim traektoriyasini o'zgartirish zarurligi to'g'risida talabalarga xabar beradi. Talabani shaxsiy ta'lim traektoriyasi shakllantirib bo'lingandan so'ng, dars jadvali tuziladi.

40. TTA Ta'limning kredit-modul tizimini boshqarish bo'limi har bir talabani ro'yxatdan o'tkazish sanasi va vaqtini belgilaydi (odatda, talaba tomonidan yetarli GPA ko'rsatkichlarining to'planganligi va kontrakt to'lovlari amalga oshirilganligiga qarab). Birinchi kurs talabalarini ro'yxatdan o'tkazish ular bilan akademik va kasbga yo'naltirish tadbirlari amalga oshirilganidan keyin boshlanadi.

41. Talabalar tanlagan fanlarini har semestrning dastlabki birinchi haftasi ichida o'zgartirishi mumkin.

42. Birinchi kurs talabalarini ro'yxatga olish jarayoni quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

tyutor Ta'limning kredit-modul tizimini boshqarish bo'limidan biriktirilgan guruh talabalarining login va parollarini oladi, talabaga ta'lim jarayonini tushuntiradi, ta'lim dasturi bilan tanishtiradi, login va parol beradi hamda talaba portalidan foydalanishni o'rgatadi;

talaba professor-o'qituvchilar tomonidan o'tkaziladigan fanlar bo'yicha tanishtiruv taqdimotlariga qatnashadi, majburiy va tanlov fanlari bilan tanishadi va ta'lim jarayonini boshqarish axborot tizimidagi talaba portali orqali ro'yxatdan o'tadi;

talaba ta'lim jarayonini boshqarish axborot tizimidagi portal orqali dars jadvalini aniqlaydi va darslarga qatnashadi.

7-bob. Talabalarni o'qishdan chetlashtirish, qayta tiklash, kursdan-kursga o'tkazish mexanizmlari

43. Talabalar TTA dan quyidagi hollarda chetlashtiriladi:
o'z xohishiga binoan;
o'qishning boshqa oliy ta'lim tashkilotiga ko'chirilishi munosabati bilan;
o'quv intizomini va TTA tomonidan o'rnatilgan ichki tartib-qoidalar hamda odob-ahloq qoidalarini buzganligi uchun;

shartnoma asosida o'qiyotgan ta'lim oluvchilar shartnoma bilan bog'liq majburiyatlarni bajarmaganligi uchun;

sud tomonidan ozodlikdan mahrum etish jazosi tayinlanganligi sababli;

sud qaroriga ko'ra kirish imtihonlarida belgilangan tartibni buzganligi aniqlanganda (ushbu holatda talabalar safidan chetlashtirilganlar talabalar safiga qayta tiklanmaydi);

vafot etganligi sababli.

Chetlashtirilgan talabaga belgilangan shakldagi ta'lim to'g'risidagi ma'lumotnoma beriladi.

44. Bir fan bo'yicha to'rt va undan ortiq sababsiz dars qoldirgan talaba ushbu fandan chetlashtirilib, yakuniy nazoratga kiritilmaydi hamda mazkur fan bo'yicha tegishli kreditlarni o'zlashtirmagan hisoblanadi. Yakuniy nazorat turiga kiritilmagan

yoki kirmagan, shuningdek, ushbu nazorat turi bo'yicha qoniqarsiz baho olgan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

Akademik qarzdor talabalar ta'til vaqtida yoki keyingi semestrlar mobaynida tegishli fanlardan o'zlashtirilmagan kreditlar miqdoriga mos ravishda bazaviy to'lov-kontrakt miqdoridan kelib chiqqan holda to'lovni amalga oshirgandan so'ng o'zlashtirilmagan fanlarni o'z hisobidan qayta o'qish huquqiga ega bo'ladi.

45. Ta'lim oluvchini kursdan kursga o'tkazish uning minimal GPA qiymatini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. TTA talabalarini kursdan kursga o'tkazishda minimal GPA ko'rsatkichini mustaqil belgilaydi. Bunda GPA ko'rsatkichi 2.4-3.0 oralig'ida bo'lishi talab etiladi.

GPA o'tish ballini to'play olmagan talaba qayta o'qish uchun tegishli kursda qoldiriladi.

O'quv yili yakuni natijalari bo'yicha akademik qarzdorligi bor talabalar o'qishdan chetlashtirilmaydi.

Kursdan kursga qolgan talabalar faqat qarzdor bo'lgan fanlarni o'zlashtirib, ularga mos ravishda shartnoma mablag'larini to'laydi.

Shartnoma asosida bir kursda qayta o'qish soni chegaralanmaydi. Jami ta'lim olish muddati har bir ta'lim yo'nalishi uchun belgilangan o'qish muddati davriyligi (3,4,5 va 6 yil)ga mos ravishda bakalavriyatning 1-kursiga o'qishga qabul qilinganidan so'ng 6, 8, 10, 12 yilgacha davom etadi, magistratura uchun 1-kursga o'qishga qabul qilinganidan so'ng 4,6 yilgacha deb belgilanadi.

46. Talaba qonunchilik hujjatlari asosida o'qishini qayta tiklash va ko'chirish huquqiga ega. Talabaning chetlashtirilgunga qadar o'zlashtirgan kreditlari miqdori TTA tomonidan to'liq hajmda hisobga olinadi.

8-bob. Yakunlovchi qoidalar

47. TTAda ta'lim olishning to'lov qiymati O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq TTA tomonidan mustaqil belgilanadi.

48. Fanlar bo'yicha qayta ta'lim olish uchun to'lov qiymati TTA tomonidan butun o'quv yilining stipendiyasiz kontrakt summasidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Qayta ta'lim olish uchun to'lov mexanizmi TTA tomonidan bir kredit qiymatini hisoblash asosida belgilanadi. Bir kredit qiymati o'quv yili davomidagi ta'lim olish uchun to'lanadigan stipendiyasiz kontrakt summasini rejalashtirilgan kreditlar miqdoriga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

49. Talaba TTA ta'lim dasturini muvaffaqiyatli o'zlashtirgan taqdirda, unga akademik darajasini tasdiqlaydigan diplom va diplom ilovasi beriladi.

Toshkent tibbiyot akademiyasida kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etish va nazorat qilish bo‘yicha YO‘RIQNOMA

Kirish

Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabridagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 824-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021-yil 27-oktabrida 43-raqam bilan ro‘yxatga olingan Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2021-yil 19-oktabridagi 35-2021-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasining davlat standarti Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalari”, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan tavsiya etilgan «Oliy ta’lim muassasalarida kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etish va nazorat qilish bo‘yicha yo‘riqnoma» asosida ishlab chiqilgan.

I. Umumiy qoidalar

1.1. Talabaning mustaqil ta’lim yuklamasi o‘quv rejasida muayyan fanni o‘zlashtirish uchun belgilangan o‘quv ishlarining ajralmas qismi hisoblanadi.

1.2. Talabaning mustaqil ta’limi auditoriya va auditoriyadan tashqarida (o‘quv yuklamasida ajratilgan auditoriya soatini inobatga olmagan holda) bevosita o‘qituvchi rahbarligida mustaqil ish yoki talabaning fan (modul) bo‘yicha mavzularni mustaqil o‘qib-o‘rganishi tarzida amalga oshiradigan o‘quv ishlari majmuini anglatadi.

1.3. Mustaqil ta’lim – o‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo‘lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni auditoriya hamda auditoriyadan tashqarida ijodiy va mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyatdir.

Mustaqil ish – o‘qituvchining topshirig‘i va rahbarligida o‘quv vazifasini hal etadigan ta’limning faol metodi. Mustaqil ish qo‘yilgan maqsad bilan bog‘liqlikda talabalarning aniq faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishdir. Talabaning mustaqil ishlari uning yuqori darajadagi faollik, ijodiylik, mustaqil tahlil, tashabbuskorlikka hamda barcha vazifalarni o‘z vaqtida va mukammal tarzda bajarishga asoslangan faoliyatidir.

1.4. Mustaqil ish turi va shakli muayyan ta’lim yo‘nalishi (mutaxassislik) hamda fan (modul)larning xususiyatidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

1.5. Mustaqil o‘qib-o‘rganish uchun taklif etilgan mavzular hamda mustaqil ish topshiriqlari va ularni bajarish bo‘yicha ko‘rsatmalar fan dasturi (Sillabus)da o‘z aksini topishi lozim.

1.6. Fan (modul) bo'yicha mustaqil ta'limga ajratilgan soatlarning mustaqil ish tarzida bajarilishi ko'zda tutilgan o'quv birligi hajmi (kredit) mas'ul kafedra muhokamasidan o'tkazilishi, yig'ilish qarori bilan tasdiqlanishi hamda professor-o'qituvchi tomonidan tuzilgan Sillabusda mustaqil ish shakli va turi mazkur hajm (kredit)ga mos kelishi lozim.

1.7. Talabalarining mustaqil ta'lim olish samaradorligini oshirish maqsadida I semestrning kredit tizimiga kirish haftaligida mustaqil ta'limni amalga oshirish tartibi bo'yicha seminarlar tashkil etiladi.

1.8. Mustaqil ish topshiriqlari va uni bajarish muddatlari (deadline) elektron platformada qat'iy belgilanadi, mustaqil ishni bajarish muddatini o'tkazib yuborgan talabaning mustaqil ish topshiriqlari tekshirilmaydi va baholanmaydi.

1.9. Mustaqil ta'lim bo'yicha o'quv faoliyati natijalari baholanmagan talaba yakuniy nazoratlarga kiritilmaydi.

1.10. Fan (modul) bo'yicha oraliq va yakuniy nazorat savollarining 1/2 qismi mustaqil o'qib-o'rganish uchun tavsiya etilgan mavzular va adabiyotlar asosida tuzilishi lozim.

1.11. Talaba mustaqil ish topshiriqlarini bajarish yuzasidan sillabusda ko'rsatilgan kontakt soatida offlayn yoki onlayn tarzda maslahat olishi mumkin.

1.12. Talaba mustaqil ish topshiriqlarini bajarishda akademik va etik talablarga rioya etishi (plagiatga yo'l qo'ymaslik, mas'uliyatlilik) shart.

1.13. Fan (modul) yuzasidan talabalar bajaradigan mustaqil ish topshiriqlari variativ tavsifga ega bo'lishi lozim. Mustaqil ish topshiriqlarining 1/3 qismi kichik guruhlarda hamkorlikda ishlashga mo'ljallangan bo'lishi kerak.

1.14. Mustaqil o'qib-o'rganish uchun taklif etiladigan mavzular va mustaqil ish topshiriqlari fan (modul)ga ajratilgan kreditlar soni hamda talabaning vaqt byudjetini inobatga olgan holda belgilanishi lozim.

1.15. Talaba tomonidan elektron tizim (platforma)ga yuklangan mustaqil ish topshiriqlari aniq belgilangan muddatda professor-o'qituvchi tomonidan tekshirilishi va natijasi talabaga ma'lum qilinishi shart.

1.16. Mustaqil ta'lim natijalarini baholash fan (modul)ning 100 ballik baholash tizimida aks ettiriladi va fan bo'yicha mustaqil ta'limga ajratilgan ballning minimal 60% ni tashkil etadi.

1.17. O'qishi ko'chirilgan yoki tiklangan talabalar o'zlashtirilmagan fan (modul)larni qayta o'qish tartibida o'zlashtiradi. Istisno tariqasida, fanning semestrda yuqumasi 6 (olti) kreditdan oshmaydigan akademik farqli fan (modul)lar talabaning arizasiga ko'ra va dekan roziligi bilan 100% mustaqil ta'lim shaklida o'zlashtirilishi mumkin.

II. Talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishning maqsad va vazifalari

2.1. Talabalarining mustaqil ta'limni tashkil etishdan asosiy maqsad fan (modul) bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash, boyitish, amaliy ko'nikma va malakalarni takomillashtirish, axborot bilan ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish, kognitiv, kreativ, hamkorlikda ishlash kompetensiyalarini shakllantirishdan iboratdir.

2.2. Talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish quyidagi vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishga xizmat qilishi lozim:

- talabalarda o'z-o'zini rivojlantirish, mustaqil bilim olish va innovatsion faoliyatni shakllantirishga imkon beruvchi kompetentsiyalarni egallash maqsadi bilan bog'liqlikda mustaqil o'quv faoliyatini amalga oshirish;

- bilim, ko'nikma va malakalarni mustaqil egallash, muammoni shakllantira olish va uni hal etishning maqbul yo'larini izlab topishga qobiliyatli kreativ shaxsni tarbiyalash;

- talabalarda o'quv dasturini o'zlashtirishga doir motivatsiyani hosil qilish;

- ta'lim oluvchilarda bilim olishga doir mas'uliyatni oshirish;

- talabalarda umummadaniy va kasbiy kompetentsiyalarni rivojlantirishga imkon berish;

- ta'lim oluvchilarda mustaqil bilim olish, o'z-o'zini boshqarish va o'z-o'zini rivojlantirishga qobiliyatlilikni shakllantirish uchun sharoit yaratish.

III. Talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishning asosiy tamoyillari

Talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishda quyidagi asosiy tamoyillarga rioya qilish maqsadga muvofiqdir:

3.1. Talabalar mustaqil ishlarini auditoriyada va auditoriyadan tashqarida tashkil etish.

3.2. Talabalar mustaqil ishlarini tizimli ravishda, ya'ni bosqichma-bosqich, oddiydan murakkabga qarab tashkil etilishini ta'minlash.

3.3. Talabalar mustaqil ishlarining shakli va hajmini belgilashda quyidagi muhim jihatlarga e'tibor qaratish:

- talabaning o'qish bosqichi;

- muayyan fanning o'ziga xos xususiyati, o'zlashtirishdagi qiyinchilik darajasiga;

- talabaning qobiliyati, nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasiga;

- fanning axborot manbalari bilan ta'minlanganlik darajasiga;

- talabaning axborot manbalari bilan ishlay olish darajasiga;

- mustaqil ish uchun topshiriqlar kursdan-kursga o'tish bilan shakl va hajm jihatidan o'zgarib borishiga;

- mustaqil ish fan xususiyati hamda talabaning akademik o'zlashtirish darajasiga va qobiliyatiga mos holda tashkil etish.

IV. Talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish jarayonini boshqarish

4.1. Talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish jarayonini boshqarishga o'quv-uslubiy boshqarma, dekanat, kafedra bevosita mas'uldir.

Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi esa, mazkur jarayonni monitoring qilish vakolatiga ega.

4.2. Mustaqil ta'lim jarayonini tashkil etishda o'quv-uslubiy boshqarma quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

- o'quv rejalarida mustaqil ta'lim uchun ajratilgan kreditlarning to'g'ri taqsimlanishini amalga oshirish;
- fan (modul)lar bo'yicha tuzilgan fan dasturi (Sillabus)da mustaqil ta'limni tashkil etishga doir uslubiy ko'rsatmalar hamda namuna tarzidagi mustaqil o'qib-o'rganish uchun mavzularning aniq aks ettirilishini nazorat qilish;
- talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish jarayonlarining borishi, mustaqil ish topshiriqlari va uning belgilangan talablarga mos bajarilishini muntazam o'rganib borish;
- talabalar mustaqil o'quv faoliyati natijalarining elektron tizimda qayd etib borilishi monitoringini yuritish.

4.3. Dekanat tomonidan talabalarining mustaqil ta'limini tashkil etishda quyidagi vazifalar amalga oshirilishi lozim:

- ta'lim yo'nalishlari (mutaxassisliklar)da talabalarining mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish. Jumladan, professor-o'qituvchi va talabalarining hamkorlikda ishlashi, kontakt soatlari uchun alohida auditoriya ajratish;
- talabalar mustaqil ishlarining bajarilishini elektron tizim orqali monitoring qilib borish, o'quv-uslubiy boshqarmaga belgilangan muddatlarda ma'lumotnoma taqdim etish;
- mustaqil ish natijalarining o'rnatilgan tartibda qayd etilishini nazorat qilish va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish;
- mustaqil ish natijalari yuzasidan professor-o'qituvchi va talaba o'rtasidagi nizolarning oldini olish;
- ta'lim yo'nalishlari (mutaxassisliklar)dan kelib chiqib mustaqil ta'limni amalga oshirish holati bo'yicha oraliq muddatlarda talabalar o'rtasida onlayn so'rovlar o'tkazish va tezkor choralar ko'rish.

4.4. Kafedra tomonidan talabalarining mustaqil ta'limini tashkil etishda quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratish talab qilinadi:

- fan (modul)lar bo'yicha mustaqil o'qib-o'rganishga doir mavzularni shakllantirish va kafedra yig'ilishida muhokama qilish;
- fan (modul)lar bo'yicha mustaqil o'qib-o'rganishga doir mavzularni o'quv dasturlarida to'g'ri va aniq aks ettirish;
- fan (modul)lar bo'yicha mustaqil ta'limga ajratilgan soatlarning mustaqil ish tarzida bajarilishi ko'zda tutilgan o'quv birligi hajmi (kredit)ni belgilash va kafedra yig'ilishida tasdiqlash;
- fan (modul)lar bo'yicha mustaqil ish turlari va shaklini belgilash hamda fan dasturi (Sillabus)da aks ettirish;
- mustaqil ish uchun ajratilgan ballarni 100 ballik tizim mezonlari doirasida belgilash, ballarni ish turlari bo'yicha taqsimlash;
- kafedra yig'ilishlarida fan (modul)lar bo'yicha mustaqil ish topshiriqlarining bajarilishini muhokama qilib borish va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish.

V. Mustaqil ta'limni amalga oshirishga doir profyessor-o'qituvchi hamda talabalarining vazifa va majburiyatlari

5.1. Talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishda professor-o'qituvchilar quyidagi vazifa va majburiyatlarni amalga oshirishi lozim:

- fan bo'yicha Sillabusda o'quv rejasida ko'zda tutilgan kredit (soat)ga muvofiq mustaqil o'qib-o'rganish uchun mavzular va mustaqil ish topshiriqlarini aniq aks ettirish;

- mustaqil ishlar va topshiriqlarning aqliy faoliyat (tahlil, sintez, taqqoslash, solishtirish, umumlashtirish)ni taqozo etishini ta'minlashi;

- Sillabusda mustaqil o'qib-o'rganish uchun tavsiya etilgan mavzularni o'zlashtirish va mustaqil ish topshiriqlarini bajarishga doir metodik ko'rsatmalar, baholash mezonlari va muddati, maslahat olish uchun kontakt soatlarini ko'rsatib qo'yishi;

- fan (modul) bo'yicha talabalarning kichik guruhlardagi hamkorlik faoliyatini tashkil etish hamda jamoada ishlash natijalari bo'yicha so'rovlar o'tkazish. Mazkur jihat talabalarning hamkorlikdagi ishlari natijalarini baholashda hisobga olinishi;

- kurs ishi mavzulari bankini tuzishda mustaqil ta'lim mazmunini ham aks ettirishi;

- oraliq va yakuniy nazorat savollarini tuzishda mustaqil ta'lim uchun tavsiya etilgan mavzularni ham nazarda tutishi;

- mustaqil ish topshiriqlarining bajarilishini elektron tizim (platforma) orqali nazorat qilib borishi, tekshirishi va baholashi, natijalarni o'z vaqtida talabalarga yetkazishi. Kichik guruhlarda hamkorlikda bajarilgan mustaqil ishlar taqdimotini o'tkazishi, talabalarning yutuq va kamchiliklarini aniqlashtirishi va natijalarini e'lon qilishi;

- professor-o'qituvchi fan dasturi (Sillabus)da belgilangan kontakt vaqtida mustaqil ish bo'yicha talaba murojaati asosida maslahat va amaliy tavsiyalar berib borishini nazorat qilishi;

- talabalarning mustaqil o'zlashtirishlari uchun qo'shimcha o'quv materiallari, ularning mazmuniga doir mustaqil ish mavzulari va topshiriqlar tayyorlashi hamda talabalarga ularni bajarishlari uchun tegishli ko'rsatmalar berib borishi.

5.2. Mustaqil o'qib-o'rganish va mustaqil ish topshiriqlarini bajarishda talabalar quyidagi vazifa va majburiyatlarni amalga oshirishi lozim:

- fan (modul)lar bo'yicha mustaqil o'qib-o'rganish uchun tavsiya etilgan mavzularni to'liq o'zlashtirishi va mustaqil ish topshiriqlarini belgilangan muddatlarda sifatli tarzda taqdim etish;

- mustaqil ish topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko'chirmakashlik)ga yo'l qo'ymaslik;

- mustaqil ish topshiriqlarini bajarishga kreativ yondashish, mustaqil, tanqidiy va innovatsion fikrlash, axborotlar bilan ishlash kompetentligiga ega bo'lish, o'z-o'zini rivojlantirishga intilish;

- kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ish topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilish, o'ziga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarish, jamoada ishlay olish kompetentsiyasini o'zlashtirish;

- axborot manbalaridan samarali foydalanish;

- an'anaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar hamda me'yoriy xujjatlar bilan ishlash;
- elektron o'quv va ilmiy adabiyotlar va ma'lumotlar banki bilan ishlash;
- Internet tarmog'idan maqsadli foydalanish;
- Ma'lumotlar bazasini tahlil etish;

Mustaqil ishga qo'yilgan baho (ballar) bo'yicha e'tirozlar bo'lgan taqdirda, talaba belgilangan muddat tugaganidan keyin 24 (yigirma to'rt) soat (1 sutka) davomida dekanatga ariza bilan murojaat qilishi mumkin.

VI. Mustaqil ta'limni tashkil etish turlari va shakllari

6.1. Talabalarning mustaqil ta'limi quyidagi turlarda tashkil etilishi lozim:

- auditoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish;
- auditoriyadan tashqari vaqtda mustaqil ish topshiriqlarini bajarish;

6.2. Auditoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish;
- seminar-konferentsiyalarga tayyorgarlik ko'rish;
- kollokviumlarga tayyorgarlik ko'rish;
- forumlarda ishtirok etish – fan mavzulari bo'yicha telegram kanallari yoki masofaviy ta'lim platformalarida fikr almashish;

- o'rgatuvchi test dasturlarida mashq qilish orqali fan (modul)ga oid bilimlarini mustahkamlash;

- nazorat ishlariga tayyorgarlik ko'rish;
- sinov (zachyot)ga tayyorgarlik ko'rish;
- imtihonga tayyorgarlik ko'rish.

6.3. Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi shakllarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

- fanning ayrim mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash va konspekt qilish;

- ma'ruzalar tayyorlash;

- seminar, amaliy va boshqa mashg'ulotlarda ma'ruzalar bilan chiqishlar qilish;

- taqdimotlar tayyorlash;
- esse, kurs ishi yozish va himoya qilish;
- referat tayyorlash;
- glossariy tuzish;
- kasallik tarixini yozish;
- hisob-kitob va analitik ishlarni bajarish, testlar yechish;
- keys-stadilar (muammoli vaziyatlar tahlili) tayyorlash;
- axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash;
- manbalar bilan ishlash;
- infografika tuzish;
- chizma-tasviriy modellar (intellekt-kart, freym, mantiqiy graf va h.k.) yaratish;

- multimediali taqdimotlar yaratish;

- ilmiy-tadqiqot ishlarida ishtirok etish va ilmiy hisobotlar tayyorlashda qatnashish;

- talabalarining ilmiy to'garaklarida ishtirok etish;

- ilmiy-amaliy anjumanlarda ishtirok etish;

- ilmiy maqola va tezislarni tayyorlash hamda chop ettirish.

Ta'lim yo'nalishi (mutaxassislik)ning xususiyatidan kelib chiqqan holda mustaqil ishlarning boshqa turlaridan foydalanish mumkin.

6.4. Mustaqil ishlarni tashkil etishda axborot texnologiyalaridan quyidagi maqsadlarda foydalanish tavsiya etiladi:

Tarmoqdan axborot izlash – web-brauzer, ma'lumotlar bazasidan foydalanish, axborot-qidiruv, axborot-ma'lumotnoma tizimlari, avtomatlashgan kutubxona tizimlari, elektron jurnallardan foydalanish.

VII. Talabalar mustaqil ishlarini baholashning umumiy mezonlari

7.1. Talabalar mustaqil ta'limini baholash mezonlari tegishli kafedralar tomonidan fan (modul)lar xususiyatini inobatga olgan holda ishlab chiqiladi va fakultet ilmiy kengashida tasdiqlanadi.

7.2. Har bir fan (modul) bo'yicha mustaqil ish topshiriqlarini baholash mezonlari talabalarga semestrning boshida taqdim qilinadi.

7.3. Talabalarining fan (modul) bo'yicha mustaqil ish topshiriqlarini baholash berilgan muddat (deadline)ga muvofiq amalga oshiriladi.

7.4. Talaba(lar)ning fan (modul) bo'yicha mustaqil ta'lim natijalari elektron platformaga butun sonlar bilan qayd qilinadi.

7.5. Fanlar kesimida talabalarining mustaqil ishlari bo'yicha o'zlashtirish muntazam ravishda talabalar guruhlarida, kafedra yig'ilishlarida hamda har semestrda fakultet Ilmiy Kengashida muhokama etib boriladi.

VIII. Yakuniy qism

8.1. Belgilangan tartibda yo'riqnomaga ayrim tuzatish va o'zgartirishlar kiritib borish mumkin.

Toshkent tibbiyot akademiyasida ta'limning kredit-modul tizimi asosida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tartibi

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur tartib asosida talabalar bilimni nazorat qilish va baholashdan maqsad ta'lim sifatini oshirish, kreativ fikrlash ko'nikmalarini mustahkamlash orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishish, talabalarning fanlarni o'zlashtirishida bo'shliqlar hosil bo'lishining oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etishdan iborat.

2. Mazkur tartib Toshkent tibbiyot akademiyasida (keyingi o'rinlarda - Akademiya) ta'limning kredit-modul tizimi asosida o'quv jarayoni, nazorat turlari, baholash mezonlari, talabalarni kursdan kursga o'tishini tartibga soladi.

3. Ta'limning kredit-modul tizimi asosida talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

talabalarda davlat ta'lim standarti, malaka talablari, kasb standartlariga muvofiq tegishli bilim, ko'nikma va malakalar shakllanganligi darajasini nazorat qilish hamda tahlil qilib borish;

talabalar bilimi, ko'nikma va malakalarini baholashning Davlat ta'lim standartlariga asoslanganlik, aniqlik, haqqoniylik, ishonchlilik, shaffoflik va qulay shaklda baholashni ta'minlash tamoyillariga asoslanishi;

fanlarning talabalar tomonidan tizimli tarzda va belgilangan muddatlarda o'zlashtirilishini tashkil etish hamda tahlil qilish;

talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, axborot resurslari manbalaridan samarali foydalanishni tashkil etish;

talabalar bilimni xolis va adolatli baholash hamda uning natijalarini o'z vaqtida e'lon qilish;

o'quv jarayonida talabalar bilimni baholashning elektron tizimini tashkil etish (elektron jurnalni joriy etish va uni samarali yuritish, fanlar bo'yicha mustaqil topshiriqlarni onlayn qabul qilish).

4. Fanlar bo'yicha ta'limning kredit-modul tizimi asosida talabalar bilimni nazorat qilish va baholab borish semestr davomida ushbu qoidalarga mos holda baholash mezonlari asosida amalga oshiriladi.

II. O'quv jarayoni

5. Bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida o'quv yuklamasi umumiy hajmi kamida 180 (uch yil muddatli o'qish davriyligida), 240 (to'rt yil muddatli o'qish davriyligida), 300 (besh yil muddatli o'qish davriyligida) va 360 (olti yil muddatli o'qish davriyligida) kreditdan iborat;

6. Talabaning bir semestrda o'zlashtirishi kerak bo'lgan kreditlari

miqdori 30 kreditni tashkil etadi. Ayrim holatlarda Akademiya Kengashi qarori bilan bir semestrda o'quv yuklamasi hajmi kreditlarning boshqacha miqdorida belgilanishi mumkin.

7. O'quv yili boshlanishidan kamida bir oy oldin 1-kursga qabul qilingan talabalar uchun Akademiya rasmiy sayti va o'quv platformasida o'quv jarayoni jadvali, ta'lim yo'nalishlarining o'quv rejalari, fanlar sillabuslari e'lon qilinadi.

8. Talabalar o'quv jarayoni boshlanishidan oldin o'quv rejada ko'rsatilgan fanlar bilan tanishib olishlari va tanlov fanlariga belgilangan ohirgi muddatgacha ro'yxatdan o'tishlari lozim.

III. Talabalar bilimni nazorat qilish turlari va shakllari

9. Talabalar bilimni nazorat qilish har bir fanning xususiyatidan kelib chiqib joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlarini o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

10. Fan bo'yicha nazorat turlari va shakllari, joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar bo'yicha ballar taqsimoti birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.

Joriy nazorat

11. Joriy nazorat – talabaning fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli.

12. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda, seminar, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarda og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollokvium, keys stadi, vaziyatli masala yechish, loyiha, kurs ishi, uy vazifalarini bajarish, mustaqil ta'lim topshiriqlari va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin.

13. Joriy nazorat har bir mashg'ulotda baholanadi. Pedagog xodim talabaning davomati va joriy nazoratda olgan ballarini har darsda professor-o'qituvchi va elektron jurnallarda qayd etib boradi.

14. Joriy nazorat bo'yicha talaba to'plagan ball professor-o'qituvchi va elektron jurnallarda to'liq va to'g'ri aks ettirilishi uchun javobgarlik tegishli fanni o'qitadigan pedagog xodimlar zimmasiga yuklatiladi.

Belgilangan muddatda talabalarning davomati va o'zlashtirish ko'rsatkichlarini elektron jurnalga kiritmagan pedagog xodimga nisbatan intizomiy javobgarlik choralari qo'llaniladi.

Oraliq nazorat

15. Oraliq nazorat – semestr davomida fan dasturining tegishli (fanning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabaning bilim va amaliy ko'nikmalari darajasini aniqlash va baholash maqsadida o'quv mashg'ulotlari davomida o'tkaziladi.

16. Oraliq nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda, umumiy kreditlar soni 4 (120 soat) va undan yuqori bo'lgan majburiy fanlar bo'yicha o'tkaziladi.

Oraliq nazoratlar soni (bir semestrda ikki martadan ko'p o'tkazilmasligi lozim) fanga ajratilgan umumiy kreditlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Oraliq nazorat jadval asosida fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'quv-uslubiy boshqarma tomonidan belgilangan og'zaki, yozma, test, OSI/OSKI yoki ularning kombinirlangan shakllarida o'tkaziladi.

Oraliq nazorat jadvallari o'quv reja asosida ta'limning kredit-modul tizimini boshqarish bo'limi tomonidan tuziladi va o'quv ishlari bo'yicha prorektor tomonidan tasdiqlanadi.

17. Oraliq nazorat topshiriqlari tegishli kafedra pedagoglari tomonidan amaliy (laboratoriya, seminar) mashg'ulotlar hamda mustaqil ta'lim mavzulari doirasida ishlab chiqiladi va kafedra yig'ilishida tasdiqlanadi.

18. JN bo'yicha to'plagan o'rtacha bali 60%dan kam bo'lmagan talabalargina oraliq nazoratga kiritiladi.

Talaba fan bo'yicha yakuniy nazorat turi o'tkaziladigan muddatga qadar oraliq nazoratni topshirgan bo'lishi shart.

19. Oraliq nazorat natijalari bo'yicha saralash balidan (60 ball) kam natija ko'rsatgan, shuningdek uzrli sabab bilan ishtirok etmagan talabalar yakuniy nazorat o'tkazilgunga qadar fakultet dekanining farmoyishi asosida oraliq nazoratni bir marta qayta topshirishlari mumkin.

Oraliq nazoratni belgilangan muddatda qayta topshirmagan talaba Yakuniy nazoratga kiritilmaydi va akademik qarzdor hisoblanadi.

20. Oraliq nazoratdan keyingi 3 kun mobaynida talabalar appelyatsiyaga berish huquqiga ega. Appelyatsiyaga ariza shaxsan talaba tomonidan dekan nomiga topshiriladi va appelyatsiya komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi.

21. Oraliq nazoratni o'tkazish jarayoni ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida davriy ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan xollarda, oraliq nazorat natijalari bekor qilinadi hamda oraliq nazorat qayta o'tkaziladi.

Yakuniy nazorat

22. Yakuniy nazorat fan bo'yicha talabaning nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida fan yakunida o'tkaziladi.

23. Yakuniy nazorat o'tkaziladigan fanlar ro'yxatini kredit-modul tizimini boshqarish bo'limi tuzadi va o'quv ishlari bo'yicha prorektor tomonidan tasdiqlanadi.

Yakuniy nazorat shakli (test, og'zaki, yozma, OSI/OSKI va ularning kombinirlangan shakli) fanning xususiyatidan kelib chiqib o'quv-uslubiy boshqarma tomonidan belgilanadi va Akademiya Kengashida tasdiqlanadi.

24. Yakuniy nazorat uchun tayyorlangan topshiriqlar tegishli kafedra pedagoglari tomonidan fan doirasida o'tilgan mavzular (auditoriya va mustaqil

ta'lim mavzulari 50:50)ni qamrab olgan holda tayyorlanadi va Akademiyaning ilmiy-uslubiy Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

25. Yozma yoki og'zaki, OSI/OSKI imtihonlari uchun variantlar soni akademik guruhdagi talabalar soniga qarab shakllantiriladi.

26. Kompyuterda test o'tkazishda vaqtdan unumli foydalanish maqsadida imtihon topshiruvchiga har bir fandan 20-25 ta savol taqdim etilishi tavsiya etiladi. Fan bo'yicha test topshiriqlari bazasi oddiy, o'rta va qiyin darajadagi, shuningdek rasmlil, grafikli testlarni o'z ichiga olishi lozim.

27. Nazoratning har bir turi JN, MT, ON bo'yicha 60 va undan yuqori ball to'plagan talabalar YaNga kiritiladi.

Yakuniy nazoratdan qoniqarsiz baho olgan talabalarga dekanat ruxsati bilan bir marta YaNni qayta topshirishga ruxsat beriladi, ikkinchi qayta topshirish talabaning arizasiga binoan koordinatsion kengash qaroriga binoan pullik asosida attestatsiya davrida amalga oshiriladi, bunda to'lov qiymati yozgi semestr uchun to'lanadigan pul miqdorining 30%ni tashkil qiladi.

28. Yakuniy nazorat o'quv ishlari bo'yicha prorektor tomonidan tasdiqlangan jadval asosida o'tkaziladi. Har semestr oxirida o'quv jarayoni jadvaliga muvofiq yakuniy nazorat (imtihon sessiyasi) uchun ikki hafta ajratiladi.

29. YaN jadvali ta'limning kredit-modul tizimini boshqarish bo'limi tomonidan tuziladi. Bir kunda bittadan ortiq fan bo'yicha yakuniy nazorat turi o'tkazilishiga yo'l qo'yilmaydi. Fanlar bo'yicha yakuniy nazoratlarni o'tkazish kamida 2 kun oralig'ida belgilanishi lozim.

30. Talabalar yakuniy nazorat jadvalida ko'rsatilgan vaqtdan kamida 15 daqiqa oldin nazorat o'tkaziladigan joyga kelishlari va nazoratchilarning ko'rsatmalariga amal qilishlari lozim.

Yakuniy nazoratga o'z vaqtida kelmagan va nazoratchilarning ko'rsatmalariga amal qilmagan talabalar YaNga qo'yilmaydi va ular uchun qayta nazorat tashkil etilmaydi.

31. Talabalar yakuniy nazoratga kirish uchun o'zlari bilan shaxsni tasdiqlovchi hujjat (talabalik guvohnomasi, fuqorolik pasporti, ID karta, harbiy guvohnoma, haydovchilik guvohnomasi) olib kelishlari va uni yakuniy nazorat o'tkaziladigan xonaga kirishdan oldin va yakuniy nazorat jarayonida ko'rsatishlari lozim, shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarsiz talaba yakuniy nazoratlarga qo'yilmaydi.

32. YaN natijalari bo'yicha appelyatsiya uchun talabalarning tegishli fakultet dekani nomiga shaxsiy arizalari YaN natijalari e'lon qilingandan keyingi 3 kun mobaynida qabul qilinadi. Appelyatsiya uchun arizalar ta'limning kredit-modul tizimini boshqarish bo'limida qayd etiladi, unda appelyatsiya qilinadigan muammo mohiyati ko'rsatiladi.

33. To'rt va undan ortiq mashg'ulotlarni (ma'ruza, amaliy, seminar, laboratoriya) sababsiz qoldirgan va o'zlashtirmagan talaba ushbu fandan chetlashtiriladi va keyingi nazorat turlariga kiritilmaydi.

34. Kasalligi sababli darslarga qatnashmagan hamda belgilangan muddatlarda joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarni topshira olmagan talabalarga fakultet dekani farmoyishi asosida, talaba o'qishni boshlaganidan so'ng ikki hafta muddatda topshirishga ruxsat beriladi.

35. Yakuniy nazorat turiga kiritilmagan yoki kirmagan, shuningdek, ushbu nazorat turi bo'yicha qoniqsiz baho (60 balldan kam) olgan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

36. Mavjud akademik qarzdorlikni topshirish akademik qarzdor talabalarning tashabbusi bilan yozgi semestrda alohida tuzilgan dars jadvali asosida amalga oshiriladi.

Akademik qarzdor talabalar yozgi semestrda tegishli fanlardan o'zlashtirilmagan kreditlar miqdoriga mos ravishda bazaviy to'lov-kontrakt miqdoridan kelib chiqqan holda to'lovni amalga oshirgandan so'ng o'zlashtirilmagan fanlarni o'z hisobidan qayta ta'lim olish huquqiga ega bo'ladi.

Yozgi semestrda qayta ta'lim olish natijalari bo'yicha akademik qarzdorligini bartaraf etmagan talaba kursdan qoldiriladi.

IV. Talabalar bilimini baholash tartibi va mezonlari

37. Talabaning har bir fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi "100 ballik" baholash tizimida amalga oshiriladi va natijalar butun sonlar bilan ifodalanadi. Ushbu 100 ball nazorat turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

- Joriy nazorat – 50 ball (JN 40 + MT 10)
 - Oraliq nazorat – 20 ball
 - Yakuniy nazorat – 30 ball
- jami – 100 ball

Oraliq nazorat ko'zda tutilmagan modullarda talabaning fan bo'yicha semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi nazorat turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

- Joriy nazorat – 70 ball (JN 50 + MT 20)
 - Yakuniy nazorat – 30 ball
- jami – 100 ball.

Hajmi 4 kredit bo'lgan sinov bilan yakunlanadigan fanlar bo'yicha quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:

- Joriy nazorat – 80 ball (JN 60 + MT 20)
- ON nazorat – 20 ball

Xajmi 4 kreditdan kam bo'lgan fanlar, shuningdek tanlov fanlari sinov bilan yakunlanadi, bunda fan bo'yicha talabaning o'zlashtirish ko'rsatkichi joriy nazoratda to'plagan ballarining o'rtacha qiymati bilan ifodalanadi:

- Joriy nazorat – 100 ball (JN 80 + MT 20)

38. Mutaxassislik fanlari bo'yicha joriy nazorat quyidagi ish turlarini 100 ballik tizimda baholash orqali amalga oshiriladi:

- talabaning nazariy bilimi;
- talabaning amaliy tayyorgarligi (amaliy/klinik ko'nikma).

39. Klinik fanlar bo'yicha JNni baholashda nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar nisbati 40:60, nazariy fanlar bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar nisbati 50:50ni tashkil etadi, ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'yicha 100% nazariy bilim baholanadi.

№	Fanlar turi	Nazariy*	Amaliy **
1	Klinik	40	60
2	Nazariy	50	50
3	Ijtimoiy-gumanitar	100	-

* – mavzu bo'yicha savol-javob, yozma, vaziyatli masalalar, testlar yechish;
 ** – bemor kuratsiyasi, klinik audit, amaliy ko'nikma, simulyator (volontiyor)da ishlash, tungi navbatchilik hisoboti, kasallik tarixni ximoya qilish.

40. Talabaning semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy bali har bir nazorat turi (JN, ON, YaN) буйича quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$UB=0,5*JN+0,2*ON+0,3*YaN$$

bu yerda: UB - Umumiy ball; JN – joriy nazorat; ON – oraliq nazorat; YaN – yakuniy nazorat.

41. Talabalar bilimi quyidagi jadvalda keltirilgan mezonlar asosida 100 ballik tizimda baholanadi:

Ball	Daraja	Ekvi-valent ball	Baho	Mezon
90-100	A	4	A'lo	Talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi, fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega
85-89	B+	3,5	Juda yaxshi	Talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi, fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega
71-84	B	3	Yaxshi	Talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega
60-70	C	2,5	Qoniqarli	Talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega
0-59	F	2	Qoniqarsiz	Talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi, fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas

Mazkur namunaviy mezonlar asosida har bir fandan nazorat turlari bo'yicha aniq mezonlar ishlab chikilib, kafedra mudiri tomonidan tasdiklanadi va talabalarga e'lon kilinadi

V. Kursdan kursga o'tish tartibi

42. Yozgi imtihon sessiyasi o'tkazuvchi xarakterga ega hisoblanadi va keyingi kursga o'tish uchun sessiyani qoniqarli baholarga topshirishning o'zi yetarli bo'lmaydi.

Talabalarning kursdan kursga o'tishi har bir o'quv yili oxirida talabalar o'zlashtirishining o'rtacha ko'rsatkichi (bundan buyon matnda GPA deb yuritiladi)ga qarab amalga oshiriladi.

Talabaning o'quv yili va butun o'qish davri uchun GPA (Grate Point Average) bali talabaning o'rtacha o'zlashtirish darajasi sifatida quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$GPA = \frac{K_1 * U_1 + K_2 * U_2 + K_3 * U_3 \dots + K_n * U_n}{K_1 + K_2 + K_3 \dots + K_n}$$

Bu yerda, K – har bir fanga ajratilgan kreditlar miqdori;

U – har bir fan bo'yicha talaba to'plagan baho;

43. Bir bosqichdan keyingi bosqichga o'tish uchun o'quv yili yakunida talabaning minimal GPA 2,6 ga teng bo'lishi shart.

44. Imtiyozli akademik daraja berish uchun bitiruvchi 3,8 dan kam bo'lmagan GPA balini olgan bo'lishi va yakuniy davlat attestatsiyasini "A" baholarga topshirgan bo'lishi kerak.

45. Bakalavriat talabasining bitiruvchi kurs yakuniga ko'ra o'rtacha GPA ko'rsatkichi minimal 2,6ga teng bo'lgan, 3, 4, 5, 6 yillik o'quv rejada ko'rsatilgan fanlar, malakaviy amaliyotni muvaffaqiyatli topshirgan holda mos ravishda 180, 240, 300, 360 kreditni jamlagan bo'lishi shart.

46. Jami ta'lim olish muddati har bir yo'nalish uchun belgilangan o'qish muddati davriyligi (3,4,5 va 6 yil)ga mos ravishda bakalavriatning 1-kursiga o'qishga qabul qilinganidan so'ng 6, 8, 10, 12 yilgacha davom etadi.

VI. Tartib-intizom qoidalari

47. Talabalar Akademiyada o'rnatilgan Odob-axloq qoidalari va ichki tartib intizomga to'liq rioya qilgan holda jamoa a'zolari va boshqa talabalarga hurmat bilan munosabatda bo'lishlari shart.

48. O'quv jarayoni, yakuniy nazoratlar va Akademiya faoliyati bilan bog'liq boshqa holatlarda talabalar belgilangan tartib intizom va odob-axloq chegaralaridan chiqmasliklari kerak.

49. Quyidagi holatlar talabalar tomonidan sodir etilgan qoidabuzarliklar sirasiga kiradi:

- jamoa a'zolari, talabalar va Akademiya jihozlariga nomuvofiq munosabatda bo'lish;
- professor-o'qituvchilar, imtihon nazoratchilariga nisbatan agressiv va hurmatsiz muomala qilish;
- professor-o'qituvchilar, imtihon nazoratchilariga jismoniy va ruhiy bosim o'tkazish;
- professor-o'qituvchilar, imtihon nazoratchilari yoki vakolatli jamoa a'zosi tomonidan berilgan ko'rsatmaga ataylab bo'ysunmaslik;
- yakuniy nazorat o'tkaziladigan auditoriyaga uyali telefon, har xil ko'rinishdagi elektron qurilmalar, ruxsat etilmagan kitob, daftar, qog'ozlar olib kirishga urinish;
- imtihon qog'ozlarini xonadan olib chiqish, o'zaro almashtirish, imtihon davomida o'zaro gaplashish, bir-biridan ko'chirish, ruxsat etilmagan kitob yoki daftar-qog'ozlardan ko'chirish;
- boshqa talaba o'rniga imtihonda ishtirok etish, soxta hujjat taqdim etish;
- plagiat va mualliflik huquqini buzish.

50. Yuqorida ko'rsatilgan va shunga o'xshash boshqa qoidabuzarliklar sodir etilsa, bu holat universitetda tashkil etilgan tartib intizom komissiyasida ko'rib chiqilib, talabaga tegishli jazo tayinlanadi.

VII. Fanlar bo'yicha qayta ta'lim olish

Qayta ta'lim olish bilan bog'liq xarajatlar Akademiyaning tegishli masul bo'limlari tomonidan hisoblab chiqilib, talabaga ma'lum qilinadi.

Qayta ta'lim olishga qolgan talaba o'zlashtira olmagan fanlaridan darslarga qatnashadilar va imtihon topshiradilar.

52. Fanlar bo'yicha qayta ta'lim olish uchun to'lov qiymati butun o'quv yilining stipendiyasiz kontrakt summasidan kelib chiqqan holda quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$Y_o = \frac{KM}{O'K} * K$$

- Yo – yozgi semestr uchun to'lanadigan pul miqdori;
- KM – bir yillik kontrakt miqdori;
- O'K – bir o'quv yili davomida talabaning to'plashi kerak bo'lgan kredit miqdori;
- K – bir fanga ajratilgan kredit miqdori.

Kafedralarning fakultetlar bo'yicha biriktirilishi

№	1-son davolash fakulteti
1	1-son ichki kasalliklar propedevtikasi
2	1-son umumiy va bolalar xirurgiyasi
3	1-son fakultet va gospital terapiya, kasb patologiyasi
4	Oftalmologiya
5	Urologiya
6	Nevrologiya va tibbiy psixologiya
7	Klinik modellashtirish
8	Onkologiya
9	1-son travmatologiya, ortopediya va XDJ
10	Normal va patologik fiziologiya
11	Psixiatriya va narkologiya
2-son davolash fakulteti	
1	Odam anatomiyasi va OXTA
2	Oilaviy tibbiyotda akusherlik va ginekologiya
3	Oilaviy tibbiyotda xirurgik kasalliklar
4	Tibbiy radiologiya
5	Anesteziologiya va reanimatologiya
6	Dermatovenerologiya va kosmetologiya
7	2-son ichki kasalliklar va endokrinologiya
8	2-son umumiy xirurgiya
9	2-son travmatologiya, ortopediya, XDJ va neyroxirurgiya
10	Klinik farmakologiya
11	Sud tibbiyoti va tibbiyot huquqi
Pediatriya, stomatologiya, xalq tabobati va tibbiy pedagogika fakulteti	
1	Pedagogika va psixologiya
2	2-son ichki kasalliklar propedevtikasi
3	Reabilitologiya, xalq tabobati va jismoniy tarbiya
4	2-son fakultet va gospital terapiya, nefrologiya va gemodializ
5	2-son fakultet va gospital xirurgiya, transplantologiya
6	2-son oilaviy tibbiyotda ichki kasalliklar
7	Bolalar kasalliklari propedevtikasi
8	Oilaviy tibbiyotda bolalar kasalliklari
9	Otorinolaringologiya va stomatologiya
10	Yuqumli va bolalar yuqumli kasalliklari
11	Ftiziatriya va pulmonologiya
Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi fakulteti	
1	Gistologiya va tibbiy biologiya
2	Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya
3	Atrof-muhit gigiyenasi
4	Kommunal va mehnat gigiyenasi
5	Epidemiologiya
6	Patologik anatomiya
7	Jamoat sog'lig'ini saqlash maktabi

Farmatsiya, menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muhandisligi va oliy ma'lumotli hamshira fakulteti	
1	Jamoat salomatligi va menejment
2	Farmakologiya
3	Biotibbiyot muhandisligi, biofizika va informatika
4	Gematologiya, transfuziologiya va laboratoriya ishi
5	Allergologiya, klinik immunologiya va hamshiralik ishi
6	Ijtimoiy fanlar
Malaka oshirish fakulteti	
1	Vrachlar malakasini oshirish
2	Bolalar kasalliklari
3	1-son fakultet va gospital xirurgiya
4	Akusherlik va ginekologiya
5	1-son oilaviy tibbiyotda ichki kasalliklar
6	Bolalar, o'smirlar va ovqatlanish gigiyenasi
7	Internatura
Xalqaro fakultet	
1	O'zbek va xorijiy tillar
2	Tibbiy va biologik kimyo